



XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FONDLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

PROSPECTS FOR DEVELOPMENT OF INVESTMENT FUNDS IN UZBEKISTAN BASED ON FOREIGN EXPERIENCE

¹Aminov Sarvar
Davlatbayevich

¹Mustaqil izlanuvchi. G-mail: aminovsarvar@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada investitsiya fondlarining mohiyati, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda mazkur fondlarning ahamiyati tadqiq etilgan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda investitsiya fondlari faoliyati tahlil qilingan holda mamlakatimizda ularning tajribalaridan foydalanish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Eng. - This article examines the essence of investment funds, the importance of these funds in the development of the national economy. Also, the activities of investment funds in foreign countries are analyzed, and scientific proposals and practical recommendations are developed on the use of their experience in our country. Scientific conclusions are formulated based on the conducted research.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *investitsiya fondi, dividend, trust, brokerlik faoliyati, dilerlik, kapital.*
❖ *investment fund, dividend, trust, brokerage activity, dealership, capital.*

Kirish.

Jahon bozoridagi raqobatlashuvning keskinlashishi sharoitida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishining asosiy shart-sharoitlaridan biri moliyaviy institutlar va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlarini kengaytirish hisoblanadi. Chunki moliyaviy vositachilar ssuda kapitalining samarali harakatini ta'minlashga, mamlakatda investitsiya muhiti va faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy islohotlar bugungi kunga kelib o'zining ijobiy natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, bank-moliya tizimi

faoliyatini yanada mustahkamlash, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash va boshqa bir qator jabhalarda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

Qulay investitsiya sharoitini yuzaga keltirishga qaratilgan davlat investitsiya siyosati so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotiga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar, birinchi navbatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimini o'sib boruvchi tendensiya hosil qilayotganligini hamda iqtisodiyotni deyarli barcha sohalarida birdek taqsimlanayotganligini ta'minlamoqda.

Mamlakatimizda investitsiya munosabatlarini takomillashtirish borasidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib, investitsiya fondlari faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Hozirgi kunda bu borada mamlakatimiz hukumati tomonidan bir qator chora-tadbirlar

amalga oshirilmoqda. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, mamlakat real sektoriga jalb etiladigan investitsiyalar hajmini oshirishda moliyaviy vositachilar muhim rol o'ynaydi. Qimmatli qog'ozlar bozori aholi pul jamg'armalarini investitsiyalarga aylanishini ta'minlaydi hamda real sektor korxonalari uchun qo'shimcha moliyaviy mablag'larni jamlash va ulardan foydalanish imkonini beradi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda kollektiv investitsiyalash shakllari va muassasalari yetarli darajada taraqqiy etgan bo'lib, ular jamg'armalarni investitsiyalarga aylanishi mexanizmini ta'minlaydi va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi. Xususan bu borada investitsiya fondlari faoliyati taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or tajribasini mamlakatimiz iqtisodiyotida ijobiy qo'llash muhimdir. Bunday mamlakatlar jumlasiga, AQSh, Lyuksemburg, Germaniya, Fransiya hamda Irlandiya davlatlarini kiritish mumkin. Ushbu mamlakatlarda investitsiya va pay fondlari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan, shuningdek, ular faoliyati maxsus davlat organi tomonidan doimiy ravishda nazorat qilinadi.

Mazkur jarayonda investitsiya fondlari faoliyatini rivojlantirish yuqoridagi dolzarb vazifalarni samarali amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu boisdan mamlakatimizda investitsiya fondlari faoliyatini rivojlantirish ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya fondlariga ta'rif berishda yagona umumlashgan yondashuv mavjud emas. Ushbu holat investitsiya fondlarining faoliyati keng qamrovliligi bilan belgilanadi.

L. Gitman investitsiya fondlarini iqtisodiyotdagi "moliyaviy ko'pri" deb ta'riflaydi. Uning fikricha, investitsiya fondlari

orqali jamg'armaga ega aholi va moliyaviy resurslarga muhtoj ishlab chiqarish subyektlari o'rtasida samarali aloqa o'rnatiladi [1].

V. Milovidov investitsiya fondlari faoliyatida portfel nazariyasini ilgari surdi. Uning fikricha, investitsiya fondlarining asosiy vazifasi — xavf va daromad o'rtasida optimal muvozanatni ta'minlashdir [2].

A. Abramov o'z tadqiqotlarida investitsiya fondlarining iqtisodiy tizimdagi barqarorlikni ta'minlashdagi rolini ta'kidlaydi. Uning fikricha, investitsiya fondlari iqtisodiy tizimda likvidlikni ta'minlash va moliyaviy vositachilikni kuchaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega institutdir [3].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. Vaxabov investitsiya fondlarini mamlakatdagi investitsiya jarayonlarini tartibga soluvchi institut sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, bu fondlar orqali moliyaviy resurslar iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga samarali yo'naltirilishi mumkin [4].

M.B. Sultonboyeva tadqiqotlarida investitsiya fondining faoliyati quyidagi munosabatlarni qamrab olishini asoslab beradi:

- investorlarning pul mablag'lari va boshqa mulklarini jalb etish;
- investorlar mulkini yagona mulk majmui (fond)da birlashtirish va tasarrufini investitsiya fondining o'ziga yoki ixtisoslashgan boshqaruv kompaniyasiga berish;
- investitsiyadan olinadigan daromad (dividend, foiz va boshq.) ko'rinishida yoki investitsiya obyektlarini qayta sotishdan foyda olish maqsadida fond mablag'larini, diversifikatsiya tamoyiliga amal qilgan holda, qimmatli qog'ozlar va boshqa investitsiya obyektlariga joylashtirish [5].

M. Sultonovning fikriga ko'ra O'zbekistonda investitsiya fondlari faoliyatini rivojlantirish uchun moliyaviy bozor infratuzilmasini mustahkamlash va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiya fondlarining

rivojlanishi to'g'ridan-to'g'ri kapital bozorining faolligi va investitsiya muhitining barqarorligiga bog'liq [6].

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan islohotlar sharoitida investitsiya fondlarini rivojlantirish va bu borada ilg'or xorij tajribalaridan ijodiy foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish mazkur maqolaning mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida statistik guruhlash, tahlil qilish, ekspert baholash, tizimli yondashuv, taqqoslash, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya fondlari faoliyatini rivojlantirish borasida AQSh tajribasi muhim ahamiyatga ega. AQShda investitsiya fondlari ichida eng ko'p tarqalgani boshqaruv kompaniyalaridir. Bu kompaniyalar o'zida aksiyadorlik jamiyatlarini ifodalaydi, mablag' qo'yish ularning aksiyalarini sotib olish orqali amalga oshiriladi. Aksiyador o'z foydasini dividend ko'rinishida, shuningdek, aksiyalar qiymatining oshishi hisobiga oladi. Boshqaruv kompaniyasi ochiq investitsiya kompaniyalariga yoki o'zaro fondlarga (mutual funds) hamda yopiq investitsiya kompaniyalariga shuningdek, yopiq turdagi trastlarga bo'linadi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida esa investitsiya fondlari faoliyatining xususiyati ushbu mintaqaning o'ziga xos shart-sharoitlaridan kelib chiqadi. Shunday ekan Yevropa Ittifoqida (20.12.1985-yildan Kengash Direktivasi) "UCITS" – "Undertaking for Collective Investment in Transferable Securities" konsepsiyasi kiritilgan. Ushbu xujjatga muvofiq UCITSga investitsiya resurslarini ommaviy jalb etish, risk diversifikatsiyasi tamoyiliga rioya qilish, investorlar talablari bo'yicha fond qimmatli qog'ozlarini pul to'lab qaytib olish talablarini qo'yadi. Bunda investitsiya fondning huquqiy

shakli shartnomaviy, shuningdek, trast yoki korporativ kabi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, UCITS mohiyati bo'yicha ko'proq AQShning o'zaro fondlariga o'xshaydi. Hozirgi vaqtda UCITSning aktivlari ulushi Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi barcha investitsiya fondlari aktivlarida qariyb 80 foizni tashkil etadi [7].

Buyuk Britaniya va Germaniyada investitsiya fondlarining faoliyatini tashkil etish Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlaridan farq qiladi. Buyuk Britaniyada investitsiya fondlari yunit-trastlar (yoki pay trastlari) hamda investitsiya trastlari deb ataladigan turlarga ajratiladi. Yunit-trastlar mohiyati bo'yicha yopiq turdagi fondlar hisoblanadi. Bunday fond faoliyatining maqsadi shundaki, investor o'zining pul to'lovlarini ishonchli boshqaruvga topshiradi. Pay bahosi yunit-trastning portfelida joylashgan qimmatli qog'ozlarning umumiy qiymatini chiqarilgan paylarning miqdoriga bo'lish yo'li orqali aniqlanadi. Talab oshganda boshqaruvchilar yangi yunitlarni chiqarish haqida qaror qabul qilishadi.

Buyuk Britaniyada mulkchilik huquqini boshqa shaxsga pulga berish imkoniyati mavjud, shuningdek, investorning puli yunit-trastga tushgandan keyin ularning ishonchli egasi vasiy (trast) deb ataladigan bo'ladi. AQShda ushbu tamoyil amal qilmaydi, shuning uchun o'zaro fondlar aksiyadorlik jamiyatlari shakliga ega.

Investitsiya trastlari yunit-trastlardan farqli ravishda o'zining paylarini pul to'lab qaytib olish yoki doimo chiqarish huquqiga ega emas. U doimiy, faqat uning oshirilishi to'g'risidagi aksiyadorlik qarorini qabul qilinishi sababli vaqti-vaqti bilan o'zgarishi mumkin bo'lgan ustav kapitaliga ega. Shuningdek, keyingi yillarda Buyuk Britaniyada yunit-trastlar o'rniga ochiq investitsiya kompaniyalari yuzaga kela boshladi.

Germaniyada investitsiya mexanizmlari boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda

yanada o'ziga xos xususiyatga ega. Bu banklarning alohida roli bilan bog'liqdir. Nemis qonunlari bo'yicha investitsiya kompaniyalari kredit tashkilotlari bo'lib hisoblanadi hamda ularga kredit tashkilotlariga tegishli barcha qonuniy me'yorlar tatbiq etiladi. Nemis investitsiya fondlarining yana bir o'ziga xos muhim xususiyati bo'lib, ular depozitariylari tuzilishi hisoblanadi, bunda, fondlarni boshqarish kompaniyasiga nazorat qilish va qimmatli qog'ozlarni saqlash ma'suliyati yuklatilgan. Fondlarning depozitariylari faqat banklardan iborat bo'lishi mumkin. Natijada, Germaniyada aksiyalar chiqarish hisobiga moliyalashtirish boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda kapital qo'yilmalarning birmuncha kam ulushini tashkil etadi. YaIMda kapitallashuv darajasining solishtirma og'irligi (20-25 foiz) bo'yicha Germaniya AQShdan ikki marta Buyuk Britaniyadan esa besh marta ortiq bo'ladi. Yirik korxonalarining uzoq muddatli kapitalga bo'lgan ehtiyojlarining katta qismini banklar qondiradi. Germaniyada bank qonunchiligi va banklarning yetakchilik roli nemis investitsiya kompaniyalarini tartibga solishda dunyodagi eng mustahkamlardan biri hisoblanadi.

Yevropa bozori investitsiya fondlari faoliyatini keqaytirish uchun anchagina katta salohiyatga egalik qiladi. 2010-yil hisob-kitoblari bo'yicha fondlar tomonidan boshqariladigan aktivlar hajmi ikki marta oshgan. Yevropa Ittifoqi doirasidagi moliyaviy bozorlarning unifikatsiyalanishi va yevroni joriy qilinishi bilan bog'liq salbiy natijalarga qaramasdan, bunday o'sishga omillarning quyidagi uchta guruhi imkon yaratgan:

- tashqi (ekzogen) omillar: jamg'arma me'yorlarini yuqori darajada saqlash, bank omonatlari va qisqa muddatli qo'yilmalar rolining pasayishi, pensiya fondlarini tashkil etish va pensiya islohotlarini o'tkazish;

- ichki (endogen) omillar: Yevropa va dunyo darajasida raqobatlashuvning kuchayishi, moliyaviy boshqaruv usullarining diversifikatsiyasi va uning sifatini oshishi,

yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tarqalishi muqarrar ravishda investitsiya fondlari miqdorining qisqarishiga va ular daromadlilikini oshishiga olib keladi;

- investitsiya fondlari faoliyatini tartibga solish usullarini takomillashtirish va Yevropa Ittifoqi darajasida talabga javob beradigan mahsulotlar sotish.

Yaponiya va Osiyoning boshqa davlatlarida investitsiya fondlari zaif rivojlangan, chunki, bu mamlakatlarning aholisi AQSh yoki G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi kabi investitsiya jarayonining unchalik faol ishtirokchisi hisoblanmaydi.

Rossiya Federatsiyasida investitsiya fondlari faoliyatini qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha federal komissiya tartibga solib turadi. Bunda mazkur organ quyidagi faoliyatni amalga oshiradi [8]:

- investitsiya fondlari faoliyati ustidan doimiy davlat nazoratini o'rnatish;

- fond aktivlarini boshqarish taqsimlash va ularni saqlash;

- pay investitsiya fondlari faoliyatiga javob beruvchi tashkilotlarni ko'p tomonlama qarama-qarshi nazorat qilishni tashkil etish;

- investorlarning ijobiy qarorlar qabul qilishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni ta'minlashga doir sharoitlar yaratish;

- hisobot tizimini takomillashtirish va boshqalar.

Shuningdek, ushbu organ pay investitsiya fondlaridagi ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etdi. Bir qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tufayli ko'plab investorlarning mazkur moliyaviy institutga bo'lgan ishonchini mustahkamladi.

AQSh va Yevropa o'rtasida fond turlari bo'yicha aktivlarni solishtirganda yana bir o'ziga xos xususiyatni ajratish mumkin. Agar AQShda barcha ochiq fondlarning yarmidan ortig'i aksiya fondlari hisoblansa, Yevropada esa aksiya fondlarining miqdori pul bozori

fondlari va obligatsiya fondlari miqdoridan anchagina ortiqdir [9].

AQSh va Yevropaning butun dunyo ochiq turdagi investitsiya fondlari jami sof aktivlaridagi ulushi 83 foizni tashkil etadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, koronavirus pandemiyasi tufayli xalqaro investitsiya fondlari sof aktivlari hajmi 2022-yilda

2021-yilga nisbatan 15,5 foizga yoki 11,0 trln. AQSh dollariga kamaygan. Investitsiya fondlari sof aktivlarida kamayish tendensiyasi Osiyo va Tinch okeani mintaqasida kuzatilgan bo'lib, mintaqada faoliyat yurituvchi investitsiya fondlarining aktivlari 2024-yilda 2022-yilga nisbatan 1 trln. AQSh dollariga pasaygan.

1-jadval

Dunyodagi ochiq turdagi investitsiya fondlarining yalpi sof aktivi dinamikasi, trln. AQSh dollari [10]

Mintaqalar	Ko'rsatkichlar					
	2020	Ulushi	2022	Ulushi	2024	Ulushi
Butun dunyo	62,9	100	60,1	100	73,9	100
AQSh	29,3	46,6	28,6	47,6	38,8	52,5
Evropa	21,6	34,3	19,1	31,8	23	31,1
Osiyo va Tinch okeani	8,8	14,0	9,1	15,1	8,1	11,0
Boshqalar	3,2	5,1	3,4	5,7	4	5,4

2024-yilda ochiq turdagi investitsiya fondlarining yalpi sof aktivlari hajmi bo'yicha AQSh yetakchilikni saqlab qolmoqda hamda jami aktivlar ulushini 52,5 foizini tashkil etgan. Yevropada 31,1 foizga, Osiyo va Tinch okeani 11,0 foizga hamda boshqa mintaqalarda 5,4 foizga teng bo'lgan.

O'zbekistonda investitsiya fondlarini rivojlantirish istiqbollarini aniqlashtirib olish nuqtai-nazaridan tadqiqotlarning amalga oshirilishi, mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlarda to'plagan amaliy tajribaning o'rganilishini taqozo qiladi. Shakllangan va rivojlanayotgan moliya bozoriga ega bo'lgan barcha mamlakatlarda investitsiya fondlari muhim o'rin egallaydi. Ularning shakllanishi va rivojlanishiga kichik aksiyadorlar miqdorining ko'payishi hamda ushbu aksiyadorlarga maxsus xizmat ko'rsatilishining zarurligi bilan bog'liq bo'lgan obyektiv sabablar ta'sir o'tkazgan. Bugungi kunda investitsiya fondlari nisbatan to'liq shakllangan an'anaviy iste'mol omonatlarini jamlovchi bank hisobvaraqlari tizimi, shuningdek o'z kapitalini saqlab qolishga intiluvchi passiv mulkdorlar

manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan trastlarga mantiqiy qo'shimcha bo'lishdi. Investitsiya fondlari moslashuvchan bozor siyosatini amalga oshirib, kichik investorlar manfaatlarini muvofiqlashtirish imkoniyatini beruvchi samarali boshqaruv tizimiga egadir.

Mamlakatimizda investitsiya va pay fondlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2015-yil 25-avgustda O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

Investorlarning pul mablag'larini jalb etish va ularni investitsiya aktivlariga qo'yish maqsadida aksiyalar chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs — aksiyadorlik jamiyati investitsiya fondidir.


Investitsiya fondi o'z faoliyatini qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Investitsiya va xususiylashtirish investitsiya fondlarining moliyaviy faoliyatini tahlili shuni ko'rsatadiki, oxirgi yillarda fondlarning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilari tomonidan ularning moliyaviy holatini mustahkamlash, umumiy va

sof aktivlar hamda daromadlarini oshirish bo'yicha ma'lum ishlar amalga oshirilgan. Biroq fondlar aktivlarining va ularning investitsion portfeldagi umumiy qiymatining o'sishi bilan bir qatorda, ularning yalpi daromadi va sof foydasining o'sishida pasayish kuzatilgan.

Fikrimizcha, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlanishi uchun bo'sh turgan mablag'larni ishlab chiqarishga samarali

joylashtirishda investitsiya fondlari muhim rol o'ynaydi. Bu esa ularni to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish bilan bir qatorda, ko'proq e'tiborni bozor mexanizmlari orqali tartibga solishni yo'lga qo'yish lozimligini ko'rsatadi. Shuningdek, ularni qimmatli qog'ozlar bozorida professional ishtirokchi sifatida faoliyatini litsenziyalash masalasi ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.



1-rasm. Investitsiya fondlari sonining o'zgarishi[11]

Rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2020-2024-yillarda investitsiya fondlari sonida keskin o'zgarish kuzatilmagan. 2020-2024-yillarda 2 ta pay fondi va 7 ta yakka tartibdagi investitsiya fondi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2021-yilda yakka tartibdagi investitsiya fondlari soni 1 donaga ko'paygan. Qimmatli qog'ozlar bozorida institutsional investorlar faoliyati ham belgilangan bo'lib, bunday

investorlar qatoriga investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va tijorat banklari kiritilgan. Institutsional investorlarning asosiy maqsadi kapitalni ko'paytirish va uning likvidligini ta'minlash hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarga faol ravishda pul mablag'larini qo'yish institutsional investorlarning asosiy funksiyasi hisoblanadi.

2-jadval

Investitsiya fondlarida jismoniy va yuridik shaxslar kesimida aksiyadorlar soni [11]

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Jismoniy shaxslar	49724	49713	49713	50402	50602
Yuridik shaxslar	35	37	37	37	37
Jami	49759	49750	49750	50439	50639

2024-yilda barcha fondlarning aksiyadorlari soni 50639 nafarni tashkil etadi va ularning 50602 nafari jismoniy shaxslar va 37 nafari yuridik shaxslar hisoblanadi. Barcha fondlarning aksiyadorlari soni 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 200 taga oshgan, bu holat

investitsiya fondlarida jismoniy va yuridik shaxslar ishtirokining faollashayotganligi bilan izohlanadi.

Xorijiy tajribalar asosida mamlakatimizda investitsiya fondlari

faoliyatini rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- investitsiya fondlarini boshqarish organlari va turli tashkilotlar o'rtasida investitsiya fondlari mulkini nazorat qilish va boshqarish funksiyalarini belgilash.

- Nazorat funksiyasini aksiyadorlik investitsiya fondning direktorlar kengashi yoki uning depozitariysi bajarishi mumkin. Misol uchun, AQSh va Meksikaning o'zaro fondlarida, Buyuk Britaniyadagi yopiq aksiyadorlik investitsiya fondlarida (unit investment trusts) nazorat bo'yicha ma'suliyatni kompaniyaning direktorlar kengashi amalga oshiradi. Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqining boshqa davlatlaridagi ochiq aksiyadorlik investitsiya fondlarida (investment companies with variable capital) UCITS bo'yicha investitsiya fondning mulkini boshqarishni nazorat qilish depozitariylar tomonidan amalga oshiriladi.

- Investitsiya fondlari aktivlarini samarali boshqarish. Investitsiya fondlari faoliyati rivojlangan ko'pgina xorijiy mamlakatlarda, investitsiya fondlari aktivlarini boshqarish bo'yicha vakolat, ularning sof aktivlari qiymatini baholash, hisob-kitob qiymatini aniqlash, investitsiya fondlari qimmatli qog'ozlarining egallash va qaytarish narxlari, ularni berish va qaytarish, buxgalteriya hisobini yuritish, hisobotlarni tuzish hamda axborotlarni ma'lum qilishga boshqaruvchi kompaniya yetakchilik qiladi.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq boshqaruvchi kompaniya shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlarini cheklash bo'yicha talablar o'rnatilgan: shunga ko'ra, bank va sug'urta faoliyatlari, brokerlik faoliyati, dilerlik, birja, depozitariy yoki kliring tashkiloti bilan birga ishlashga yo'l qo'yilmaydi.

Xulosa va takliflar.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida qayd etish joizki, investitsiya fondlarining aholi bo'sh pul mablag'larini investitsiyalarga aylantirishdagi muhim rolini hisobga olib,

jismoniy shaxs – rezidentlarning investitsiya fondlaridagi ishtirokini rag'batlantirish maqsadida oraliq daromadlarni olish, pay investitsiya fondlari paylarini sotish yoki so'ndirishdan keladigan daromadlarini soliqqa tortishda muayyan iimtiyozlarni berish zarur. Jumladan, jismoniy shaxslarning jamg'armalarini investitsiya fondlariga jalb qilishni rag'batlantirishning dastlabki bosqichida ular oladigan daromadlarni soliqdan to'liq ozod etish maqsadga muvofiq. Bu holat aholining investitsiya fondlari orqali fond bozorida ishtirokini faollashtiradi va ularni iqtisodiy o'zgarishlar va investitsion jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanishiga zamin yaratadi.

Umuman olganda, respublikamizda investitsiya fondlarining o'rta istiqbolda barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilanishi maqsadga muvofiq:

- respublika qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish, uning kapitallashuv darajasini oshirish va infratuzilmasini takomillashtirish choralari ko'rish;

- qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlarning yillik inflyatsiya darajasidan past bo'lmasligini ta'minlash;

- investitsiya fondlarining investitsion portfeli tarkibini diversifikatsiyalash, xususan, investitsiya ob'ektlarini ko'paytirish;

- investitsiya fondlari o'rtasidagi raqobat muhitini yaxshilash choralari ko'rish;

- investitsiya fondlari faoliyatini tartibga solishning huquqiy bazasini mustahkamlash;

- investitsiya fondlarida risklarni boshqarish tizimini shakllantirish bo'yicha majburiy talablarni joriy etish lozim. Xususan, ushbu talablar kutilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun maxsus zaxiralarni tashkil etish, fondlarning investitsion faoliyati bo'yicha hisobot taqdim etish kabilarni qamrab olishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda investitsiya fondlarini jahon tajribalari asosida rivojlantirish jamoaviy investitsiyalash

sohasini faol rivojlanishiga, shuningdek fond bozorining iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida kapitalni erkin oqimini ta'minlashga, investorlar va aholining keng tabaqalariga fond bozoriga kirish imkoniyatini berish va

omonatlarni shakllantirish, ularni iqtisodiyotning real sektoriga kiritilgan investitsiyalarga aylantirish uchun muqobil imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гутман Л.Дж., Джонк М.Д. Основы инвестирования. Пер. с англ. – М.: Дело, 1997. – 1008 с.
2. Миловидов В.Д. Паевые инвестиционные фонды. – М.: АНКИЛ-ИНФРА-М, 1996. – 68 с.
3. Абрамов А. Инвестиционные фонды: доходность и риски, стратегии управления портфелем, объекты инвестирования в России. – М.: Алпина Бизнес Букс, 2005. – 416 с.
4. Vaxabov A., Xajibakiev Sh., Muminov N. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma / i.f.d. prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – T.: "Moliya", 2010. – 328 b.
5. Sultonboyeva M.B. O'zbekistonda investitsiya fondlarini rivojlantirishning konseptual jihatlari. Iq.fan.dok. (DSc) diss. avtor. – Toshkent: 2018. – b.14-15.
6. Sultonov M.A. O'zbekistonda investitsiya fondlarini rivojlantirish istiqbollari. Iqtisod fanlari bo'yicha falfasa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2019. – B. 3.
7. Саркисянц А. Одной из особенностей развития инвестиционных фондов в последнее десятилетие является изменение их структуры. //, «Б&Б», № 1, 2010 г.
8. Панкратова Л.Д. Портфельный анализ и учетно-аналитические аспекты деятельности паевых инвестиционных фондов в РФ. Автореф. дис...док. эконом. наук.- Воронеж: 2008. – С.12;
9. Hooi Hooi Lean.Wei Rong Ang. Russell Smyth. Performance and performance persistence of socially responsible investment funds in Europe and North America. The North American Journal of Economics and Finance. Volume 34, November 2015, Pages 254-266. (<https://www.sciencedirect.com>, <https://www.scopus.com>)
10. Investment Company Fact Book
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Depozitariysining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.